

QO'QON-YANGI QO'RG'ON YO'NALISHIDA HARAKAT MIQDORI VA TARKIBINI O'RGANISH

Tashev Dilmurod Validjonovich

Tashkent state transport university, Tashkent, Uzbekistan.

dilmurod.tashev007@gmail.com

To'liqinov Ro'zali Sharifjon o'g'li

Tashkent state transport university, Tashkent, Uzbekistan.

sarvarrahmonov1111@gmail.com

Raxmonov Sarvar Islom o'g'li

Tashkent state transport university, Tashkent, Uzbekistan.

tolqinovrozali@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17106395>

Annotatsiya. Ushbu maqolada qo'qon-yangi qo'rg'on yo'nalishida harakat miqdori va tezligini harakat xavfsizligiga ta'sirini o'rganishga qaratilgan.

Kalit so'zlari: harakat xavfsizligi, harakat miqdori, tarkibi, harakat tezligi, yo'l sharoiti, yo'l transport hodisalari.

Annotation. This article is dedicated to studying the impact of traffic volume and speed on road safety in the Qo'qon-Yangi Qo'rg'on route.


Key words: Traffic safety, Traffic volume, Traffic composition, Traffic speed, Road conditions, Road traffic accidents.

Yurtimizda yo'l infratuzilmasini takomillashtirish va xavfsiz harakatlanish sharoitlarini yaratish orqali yo'llarda avariya va o'lim holatlarini keskin qisqartirish, shu jumladan, harakatni boshqarish tizimini to'liq raqamlashtirish va jamoatchilikning ushbu sohadagi ishlarda keng ishtirokini ta'minlash maqsadida 2022-2026 yillar davomida Respublika hududida amalga oshirilishi mo'ljallangan "Xavfsiz va ravon yo'l" umummilliy dasturi tasdiqlangan [1].

Bugungi kunda yo'l-transport hodisasi butun dunyoda global muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, bir yilda sayyoramizda 1,35 million kishi yo'l-transport hodisasi qurboni bo'lmoqda hamda 50 million kishi turli turdagi tanjarohat olmoqdalar bulardan 20 millionini bollar tashkil etmoqda.

Bularni taxlil qilganimizda Yevropa mamlakatlari yalpi ichki mahsulotining 1,5–2,5% yo'l-transport hodisalari oqibatlarini bartaraf etishga sarflanmoqda. So'ngi 10-15 yillardagi yo'l transport hodisalari tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, inson o'limiga sabab bo'luvchi holatlar har xil davlatlarda turlicha. Jumladan, Amerika Qo'shma Shtatlarida 2000 yilda 42 ming kishi halok bo'lgan bo'lsa, 4 milliondan ortiq inson turli darajadagi tan jarohatlarini olishgan.

Respublikamizda har yili 10 mingdan ortiq YTH sodir bo'ladi, shundan har yili 2,5 mingga yaqin kishi halok bo'ladi va 10 mingga yaqin kishi turli xil darajadagi tan jarohatlari olishadi. O'zbekistonda eng og'riqli masala bo'lib qolmoqda – oldini olishga qaratilgan choralarga qaramay har yili yo'llarda minglab odamlar tezlik yoki qo'pol qoidabuzarlik qurboni bo'lyapti. Respublikada 2020 yilda 1962 nafar, 2021 yilda 2426 nafar hamda 2022 yilda 2356 nafar odam avariya oqibatida halok bo'lgan. Bu raqam 2023 yilning 11 oyida 2080 nafar odam halok bo'lgan va 8055 kishi jarohat olishmoqda.




1-rasm. Respublikamizda sodir bo'lgan yo'l transport hodisalarini yillar bo'yicha taxlili.

Yuqoridagi ma'lumotlarni inobatga olgan holda Qo'qon-Yangi qo'rg'on yo'nalishida transport vositalarini harakat miqdori va tarkibini hamda transport vositalarini harakat tezligini (100 mert masofa belgilanib) ko'cha yo'l sharoitida vizual holatda tadqiqot ishlari natijalari aniqlandi (1-jadvalda).


1-jadval

Soat	Yengil avtomobil	Yuk avtomobil			Avtobus	Velosiped	Jami
		2-5 t	5-8 t	8 t yuqori			
8 ⁰⁰ -8 ⁰⁵	92	3		1	1	2	99
8 ⁰⁵ -8 ¹⁰	85	4				1	90
8 ¹⁰ -8 ¹⁵	82						82
8 ¹⁵ -8 ²⁰	94	1	3		1	3	102
8 ²⁰ -8 ²⁵	99	2					101
8 ²⁵ -8 ³⁰	102	2		1		2	107
8 ³⁰ -8 ³⁵	90	4			1		95
8 ³⁵ -8 ⁴⁰	84		2				86
8 ⁴⁰ -8 ⁴⁵	95	3				1	99
8 ⁴⁵ -8 ⁵⁰	90	2			1		93
8 ⁵⁰ -8 ⁵⁵	107	5					112
8 ⁵⁵ -9 ⁰⁰	84		1			4	89
9 ⁰⁰ -9 ⁰⁵	90				1		91
9 ⁰⁵ -9 ¹⁰	94	1					95
9 ¹⁰ -9 ¹⁵	95	4		1		2	102
9 ¹⁵ -9 ²⁰	95	2	1		1		99
9 ²⁰ -9 ²⁵	90	3					93

9 ²⁵ -9 ³⁰	95					3	98
9 ³⁰ -9 ³⁵	92				1		93
9 ³⁵ -9 ⁴⁰	108	2					110
9 ⁴⁰ -9 ⁴⁵	88	2				1	91
9 ⁴⁵ -9 ⁵⁰	90				1		91
9 ⁵⁰ -9 ⁵⁵	84						84
9 ⁵⁵ -10 ⁰⁰	95	1				25;	96
jami	2220	41	7	3	8	19	2298



2-rasm. Qo‘qon-Yangi qo‘rg‘on yo‘nalishida harakat miqdorini soatlar bo‘yicha o‘zgarish grafigi.



3-rasm. Qo‘qon-Yangi qo‘rg‘on yo‘nalishida harakat tarkibini o‘zgarish siklogrammasi. Qo‘qon-Yangi qo‘rg‘on yo‘nalishida harakat miqdori va tarkibini o‘zgarishini taxlil qilganimizda harakat tarkibida yengil avtomobillarni miqdori 96,6 % ni tashkil etishi bu o‘z

navbatida transport oqimida yengil avtomobillarni soni yuqori ekanligi shu bilan birgalikda oqimda harakat tezligi ta'minlash va yo'llarda harakat xavfsizligini oshirish dorzarb masala hisoblanadi.

Yuqorilardan kelib chiqqan holda yo'llarda xavfsiz harakatlanishni tashkil qilishning asosiy maqsadi-har bir transport vositalarining yuqori tezlik bilan yo'lining turli bo'laklaridan, yilning har qanday ob-havo sharoitida xavfsiz o'tkazish va piyodalarni xavfsiz harakatlanishini ta'minlashdan iborat, deb tushiniladi. Bundan kelib chiqadigan asosiy vazifalar quyidagilar:

- transport vositalarining va piyodalarining harakat tartibini belgilash va ta'minlash;
- yo'l harakati qatnashchilariga qulayliklar yaratish;
- avtomobillarning yuqori samaradorlik bilan ishlashini ta'minlash va eng yaxshi yo'l sharoitlarini vujudga keltirish;
- harakat xavfsizligini ta'minlash va iloji boricha yo'l transport hodisasini eng kam sodir etilishiga erishish;
- atrof-muhitni ifloslantirmaslik;
- transport vositalarining va yo'l inshootlarining tez ishdan chiqmasligini ta'minlash;

SHuningdek xaydovchilik guvohnomasini endigina qoliga olgan, hali etarlicha tajribaga va transport vositasini boshqarish mahoratiga ega bo'lmagan haydovchi uchun minglab avtomobillar, yuzlab piyodalar harakatlanayotgan, har qadamda uchraydigan ko'plab yo'l belgilari va chiziqlari, svetofor qurilmalari uchraydigan yo'llarda xavfsiz harakatlanish oson ish emas. Har qanday haydovchi ham yo'llarda uchrashi mumkin bo'lgan turli holatlarni shoshilmasdan, to'g'ri va oqilona baholab harakatlanishga yillar o'tgan sari o'zida ko'nikma hosil qiladi. Buning uchun unga ma'lum bir vaqt kerak bo'lib, u eng avvalo «Yo'l harakati qoidalarini» mukammal o'rganishi va xavfsizlik talablarini chuqur anglashi darkor.

Adabiyotlar:

1. Azizov K.X. Harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari. T.:Fan va texnologiya, 2009. – 244 b.
2. МШН 25-2005 “Указания по обеспечению безопасности движения на автомобильных дорогах”. ГАК «Узавтоул» АДНИИ, Ташкент, 2007: - 283 с.
3. https://uz.kursiv.media/uz/2024-06-26/2024-yilning-yanvar-may-oylarida-yth-oqibatida-qancha-odam-halok-boldi/?utm_campaign=endless_feed
4. <https://yoshlarovozi.uz/oz/news/ythlar-qurboni>
5. <https://kun.uz/news/2024/01/11/ozbekistonda-bir-yilda-yana-2-mingdan-ortiq-kishi-ythlarda-halok-boldi>.
6. <https://azon.global/uz/posts/turkiy-dunyo/toshkentda-qancha-odam-yth-oqibatida-vafot-etgani-aytildi>